

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA O'QISHGA BO'LGAN MOTIVATSIYANING PASTLIGI VA UNI OSHIRISH YO'LLARI

TO'LAYEVA ULDONA RASHID QIZI
XOLLIEYEVA MAHBUBA ISKANDAR QIZI

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim

yo'nalishi 1-bosqich talabasi

SHOMUROTOV ULUGBEK MELIKBOBOYEVICH

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti, Pedagogika va psixologiya

kafedrası o'qituvchisi (maqola ilmiy raxbari)

ulugbekshomurotov986@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0008-8004-499X>

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qishga bo'lgan motivatsiyaning pastligi muammosi zamonaviy ta'lim tizimining eng dolzarb masalalaridan biri sifatida ko'rib chiqilgan. Boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan munosabati, ta'lim jarayoniga qiziqishi va o'quv faoliyatiga nisbatan ijobiy motivlarning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois mazkur bosqichda motivatsiyaning yetarli darajada rivojlanmaganligi keyingi ta'lim bosqichlarida o'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga, mustaqil fikrlash ko'nikmalariga hamda shaxs sifatida kamol topishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqot ishida "motivatsiya" tushunchasining pedagogik va psixologik mohiyati, uning ichki va tashqi turlari, shuningdek, boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarga xos bo'lgan psixofiziologik xususiyatlar atroflicha tahlil qilingan.

KALIT SO'ZLAR: Motivatsiya, O'quv motivatsiyasi, Ichki motivatsiya, Tashqi motivatsiya, Interfaol metodlar, Motivatsiyani shakllantirish, Motiv.

KIRISH: Bugungi kunda ta'lim tizimini takomillashtirish, o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirish hamda ularni har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida tarbiyalash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarda o'qishga bo'lgan munosabat, ta'lim jarayoniga qiziqish va o'quv faoliyatiga nisbatan ijobiy motivlarning shakllanishida asosiy poydevor bo'lib xizmat qiladi. Ushbu bosqichda o'quv motivatsiyasining yetarli darajada shakllanmaganligi keyingi ta'lim bosqichlarida o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish darajasi pasayishiga, mustaqil fikrlash ko'nikmalarining sust rivojlanishiga hamda o'qishga nisbatan befarqlikning kuchayishiga olib kelishi mumkin. Motiv (psixologiyada) — inson faoliyatida muayyan maqsadni bajarishga sabab bo'luvchi omil, vaj motiv shaxsni harakatga va faoliyatga undovchi, ehtiyojning yuksak shakli sifatida paydo bo'luvchi ichki turtki hisoblanadi. Ehtiyoj va instinkt, mayl va hissiyot, ideal va boshqa motivlar jumlasiga kiradi. Hozirgi zamon psixologiyasida Motiv atamasi sub'yektni faollashtiruvchi turli hodisa va holatlarni ifodalash uchun qo'llanadi. Xatti-harakat va faoliyat motivlarining majmuasi motivatsiya deyiladi. Motiv ehtiyoj negizida vujudga keladi va shakllanadi. Ehtiyojning barqarorlashuvi motivatsiyaning samarali shakllanishini ta'minlaydi. Harakat faoliyatning tarkibi bo'lgani tufayli u faoliyatning maqsadi va Motivatsiya orqali boshqariladi. Ba'zan "Motivatsiya" tu-shunchasini "emotsiya", "maqsad", "ustanovka" atamalari bilan almashtirish hollari uchraydi.

Goho turtki, qo'zg'ovchi, undovchi tushunchalari bilan aynanlashtiriladi. Motivatsiya — bu odamlar va boshqa hayvonlarning ma'lum bir vaqtda xatti-harakatni boshlashi, davom ettirishi yoki to'xtatishi sababi. Motivatsion holatlar odatda agent ichida harakat qiluvchi, maqsadga yo'naltirilgan xatti-harakatlarga moyillikni yaratadigan kuchlar sifatida tushuniladi. Ko'pincha turli xil ruhiy holatlar bir-biri bilan raqobatlashadi va faqat eng kuchli holat xatti-harakatni belgilaydi. Bu shuni anglatadiki, biz biror narsani amalga oshirmasdan turib, biror narsa qilishga undashimiz mumkin. Motivatsiyani ta'minlovchi paradigmatic ruhiy holat — bu istak.

Ammo boshqa turli holatlar, masalan, nima qilish kerakligi yoki niyatlari haqidagi e'tiqodlar ham motivatsiyani ta'minlashi mumkin. Motivatsiya „motiv“ so'zidan

oligan bo'lib, u kishining ehtiyojlari, istaklari yoki undovlarini bildiradi. Maqsadga erishish uchun shaxslarni harakatga undash jarayonidir. Ish maqsadlari kontekstida odamlarning xatti-harakatlarini kuchaytiradigan psixologik elementlar pulga bo'lgan xohishni o'z ichiga olishi mumkin. Odamlarda doimo qiziqish va ish, rol yoki mavzuga sodiq qolish yoki maqsadga erishish uchun harakat qilishni xohlaydigan istak va kuchni rag'batlantiradigan ichki va tashqi omillar. Biror bir maqsadga erishish uchun bo'lgan kuchli xohish yoki istak bormi demak sizda ozingizga bo'lgan ishonch va o'zgalarga otkazadigan tasir kuchingiz ijobiy. Siz karshingizdagi insonga bir so'z bilan ruxlantirib o'ziga ishonch uyg'ota olasiz. Odam tashqi muhildagi turli-tuman narsa va hodisalarni idrok qilar ekan, hech vaqt bu narsalarga batamom befarq bo'lmaydi. Odamning aks ettirish jarayoni doimo faol xarakterga egadir.

Aks ettirish jarayoni quyidagilarni qamrab oladi:

- a) shaxsning ehtiyojni qondirish imkoniyatiga egaligini;
- b) qondirishga yordam beradigan yoki qarshilik ko'rsatadigan ob'ektlarga sub'ekt sifatida qatnashishi;
- v) uni harakat qildiruvchi bilimga intiltiruvchi munosabatlar va hokazo. Chunki odam atrofidagi har turli narsalarni idrok qilib aks ettirar ekan, bu narsalarga nisbatan ma'lum munosabatda bo'ladi. Masalan, bizga ayrim narsalar yoqsa, ya'ni kayfiyatimizni ko'tarib yuborsa, boshqa bir narsalar yoqmaydi va kayfiyatimizni buzib, dilimizni xira qiladi. Ba'zi bir ovqatni odam juda ham yoqtiradi, boshqa bir ovqatni esa mutlaqo ko'rgisi kelmaydi yoki ayrim odamlar bizga xush keladi yoki boshqa bir odamlar esa noxush keladi. Umuman odam atrofidagi hamma narsalarga nisbatan munosabatda bo'ladi va uning munosabatlari ham aks ettiriladi. Motivatsiya va motiv bolaning ongiy rivojlanishida muhim psixologik omillardan biri hisoblanadi.

Motiv bolaning ma'lum bir faoliyatni bajarishga undovchi ichki ehtiyoji bo'lsa, motivatsiya ushbu ehtiyojlarni faollashtiruvchi jarayondir. Ular bolaning bilish jarayonlari, xulq-atvori hamda shaxs sifatida shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Motivatsiya bolaning diqqat, tafakkur va xotira jarayonlarini faollashtiradi. Qiziqish va ichki rag'bat asosida faoliyat olib borayotgan bola bilimni ongli ravishda o'zlashtiradi, mustaqil fikrlashga intiladi va o'rganilgan ma'lumotni uzoq muddat

saqlab qoladi. Ayniqsa, ijobiy motivatsiya bolaning o'qishga bo'lgan munosabatini mustahkamlaydi. Motivlar bolaning xulq-atvorini shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Ijobiy motivlar — maqto'v, qo'llab-quvvatlash va muvaffaqiyatga erishish istagi — bolaning faol va tashabbuskor bo'lishiga xizmat qiladi. Salbiy motivlar esa qisqa muddatli natija bergani bilan, bolaning ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuningdek, motivatsiya bolaning emotsional holatiga ta'sir etib, o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi, ijobiy hissiyotlarni shakllantiradi va shaxsiy rivojlanishga zamin yaratadi. Motivatsiyali muhitda ulg'aygan bolalar maqsad qo'yish, mas'uliyatni his etish va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lib voyaga yetadi.

XULOSA: Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qishga bo'lgan motivatsiyaning pasayishi pedagogik jarayonning samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Motivatsiyaning yetarli darajada shakllanmasligi o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish darajasini pasaytiradi, mustaqil fikrlash va ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirishga to'sqinlik qiladi, shuningdek, shaxs sifatida umumiy rivojlanishiga salbiy ta'sir qiladi. Bunda dars jarayonining bir xilligi, an'anaviy o'qitish metodlari, o'quvchilarning individual qobiliyat va ehtiyojlarini yetarli darajada hisobga olmaslik, oilaviy va ijtimoiy muhitning ta'siri hamda baholash va rag'batlantirish tizimidagi kamchiliklar asosiy omillar sifatida namoyon bo'ladi. O'qishga bo'lgan motivatsiyani oshirishda interfaol dars metodlari, o'yin texnologiyalari, muammoli va ijodiy topshiriqlar, differensial va individual yondashuv, ijobiy baholash va rag'batlantirish tizimi samarali vosita sifatida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ota-ona va maktabning uzviy hamkorligi, bolalarning qiziqishlari va ehtiyojlariga mos qo'llab-quvvatlash, motivatsiyani shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Natijada, o'quvchilarda o'qishga bo'lgan ijobiy motivatsiyani rivojlantirish pedagogik jarayonning sifatini oshirish, ta'lim samaradorligini kuchaytirish va boshlang'ich sinf o'quvchilarining shaxs sifatida barkamol rivojlanishini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Ushbu xulosalar pedagogik amaliyotda qo'llanilishi, o'qituvchilar va ta'lim muassasalari uchun foydali tavsiyalar sifatida ishlatilishi mumkin.

FOYDALANGGAN ADABIYOTLAR:

1. 1.D.G'.MUHAMMEDOVA,N.M.MULLABOYEVA,I.A.RASULOV" Umumiy psixologiya" "Mumtoz so'z" 2018
2. 2.M.G.DAVLETSHIN,S.M.TO'YCHIYEV Umumiy psixologiya T:2002
3. 3.Umumiy psixologiya.M.V.PETROVSKIY MOSKVA 1995
4. 4.https://kitobsevar.u16.Umumiy psixologiya (A.V.Petrovskiy tahriri ostida) T; "O'qituvchi" 1992 y
5. 5.G'oziev E.G' Umumiy psixologiya 1-2 kitob T-2002 y
6. Ko'chkinova M. N., qizi Rahmonova D. I., qizi Rahmonova M. S. BO 'LAJAK O'QITUVCHI KASBIY TAYYORGARLIGIGA DOIR ETIKET QOIDALARINI TARKIB TOPTIRISHDA MULOQOTNING O 'RNI //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 14. – C. 778-783
7. A tamurodova Q. G. Factors and means of individual spiritual development //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 6. – C. 771-774
8. Achilov, O. M., Kochkinova, M. N., & Kamolova, O. M. Q. (2021). THE IMPORTANCE OF ECONOMIC EDUCATION IN PRESCHOOL CHILDREN. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(06), 137-140
9. Achilov O. M., Kochkinova M. N., Kamolova O. M. Q. THE IMPORTANCE OF ECONOMIC EDUCATION IN PRESCHOOL CHILDREN //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS. – 2021. – T. 2. – №. 06. – C. 137-140
10. Ismatov S. et al. O'QUVCHI YOSHLAR TARBIYASIDA DINIY EKSTRIMIZM VA TERRORIZM TAHDIDI VA ULARNI BARTARAF ETISHNING MAVJUD SHAROITLARI //PEDAGOG. – 2023. – T. 6. – №. 2. – C. 443-447

11. Ismatov S. et al. O'QUVCHI YOSHLAR TARBIYASIDA DINIY EKSTRIMIZM VA TERRORIZM TAHDIDI VA ULARNI BARTARAF ETISHNING MAVJUD SHAROITLARI //PEDAGOG. – 2023. – T. 6. – №. 2. – С. 443-447
12. Ko'chkinova M. KASBIY ETIKET QOIDALARINING TAKOMILLASHUVIDA PEDAGOGIK MAHORAT VA O 'QITUVCHI KOMPETENSIYALARINING AHAMIYATI //" Science Shine" International scientific journal. – 2024. – T. 16. – №. 1
13. Ko'charova D., Ko'chkinova M. XURSHID DO 'STMUHAMMAD NASRIDA DIDAKTIK TAMOIYILLAR //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – T. 1. – №. 4. – С. 703-707
Ko'charova D., Ko'chkinova M. ABDULLA QODIRIYNING OBRAZ YARATISH MAHORATI //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – T. 1. – №. 4. – С. 714-716
15. Ko'chkinova Makhliyo Norbutayevna, & Ravshanov Muhammad G'afur o'g'li. (2021). THE ROLE OF INCLUSIVE EDUCATION IN THE LIVES OF CHILDREN WITH DISABILITIES. European Scholar Journal, 2(6), 193-194. Retrieved from <https://scholarzest.com/index.php/esj/articl>.
16. Norbutayevna K. M. et al. MUSTAQIL TA'LIM JARAYONIDA IJOBIY MOTIVATSIYANI QO 'LLAB-QUVVATLASHNING PEDAGOGIK USULLARI //KONFERENSIYA. – 2025. – T. 1. – №. 1. – С. 467-474.
17. Norbutayevna K. M. TALABALARDA O 'ZO 'ZINI ANGLASH VA REFLEKSIYA JARAYONINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI //KONFERENSIYA. – 2025. – T. 1. – №. 1. – С. 127-132.
18. Кўчкинова М. ЗНАЧЕНИЕ ИМИДЖА СОВРЕМЕННОГО ПЕДАГОГА В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКЕ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ //Предпринимательства и педагогика. – 2025. – Т. 4. – №. 3. – С. 104-117.

19. Kochkinova M. THE IMPORTANCE OF THE IMAGE OF A MODERN TEACHER IN THE PROFESSIONAL PREPARATION OF A FUTURE TEACHER //Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations. – 2025. – Т. 1. – №. 1. – С. 614-621.
20. Norbutayevna K. M. et al. BOLALARDA MATEMATIK TUSHUNCHALARNI RIVOJLANTIRISHDA, ILMIY YONDASHUVLARNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK TAHLILI //Modern education and development. – 2025. – Т. 20. – №. 1. – С. 218-226.
21. Norbutayevna K. M. et al. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKIOTLARIDA MULTEMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI VA DOLZARBLIGI //Modern education and development. – 2025. – Т. 20. – №. 1. – С. 227-233.
22. Кўчкинова М. ЗНАЧЕНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАВЫКОВ И КОМПЕТЕНЦИЙ ПЕДАГОГА В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ПРАВИЛ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ЭТИКЕТА //Предпринимательства и педагогика. – 2024. – Т. 3. – №. 3. – С. 194-203.